



Vorislik huquqi

Karimjonov Muhammadjo'rabek Shuhratbek o'gli

Andijon Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar

Institute Yurisprudensiya faoliyat turlari

bo'yicha talim yo'nalishitalabasi

e-mail: karimjonovmuhammadjorabek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola vasiylik va homilik voyaga yetmaganlarga nisbatan muomaga layoqatsiz yoki muomilaga layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga nisbatan ishlatiladi muhtoj bo'lgan shaxslarni ularni mol mulki hisobga olinishi va joylashtirish tushuniladi .

Kalit so'zlar: Yashash joyidagi vasiligi,o'zini huquqlari, daromad olish huquqi,sudga shikoyat qilish huquqiy,o'zini o'zini boshqarishi,ular 10 yoshda bo'sayam vasiligi bo'ladi,tug'lganlik to'g'risidagi guvoh noma ,yoki paspirt.

Аннотация: Данная статья применяется в отношении граждан, признанных недееспособными или ограниченными в возможностях осуществлять опеку и попечительство над несовершеннолетними.

Ключевые слова: Опека по месту жительства, самоправа, право на доход, обращение в суд, самоуправление, будут опекуном ребенка в возрасте 10 лет, свидетельство о рождении без свидетеля или паспирта.

Abstract: This article is used in relation to citizens who have been found to be incompetent or limited in their ability to deal with guardianship and sponsorship minors.



Key words: Custody in the place of residence, self-rights, right to income, legal appeal to the court, self-governance, they will be the guardian of the child at the age of 10, birth certificate no witness, or passirt

Vorislik huquqiy munosabatlari eng murakkab institutlardan biri, bu munosabat meros qoldiruvchining o'limidan keyin vujudga keladigan huquqiy munosabatlar.

Vorislik munosabatlari Rim quldorlik davlatining dastlabki paytlarida ma'lum bo'lgan, vorislik ham xuddi mulk kabi sinflarning, davlat va huquqning yuzaga kelishidan avval vujudga kelgan bo'lsa ham, tom ma'nodagi vorislik huquqi jamiyatning sinflarga bo'linishi, davlatning vujudga kelishi bilan iqtisodda hukmron bo'lgan sinfning erki, irodasi va manfaatini ko'zlagan holda paydo bo'ladi

Qadimgi Rim quldorlik davlatida vorislik – vafot etgan shaxs (marhum shaxs, meros qoldiruvchi) ning o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkinging fuqarolik qonunlariga yoki odat normalariga asoslangan holda bir yoki bir nechta shaxslarga, ya'ni merosxo'rlarga o'tkazilishiga aytilgan.

Rim davlatida har bir fuqaro o'ziga tegishli bo'lgan xususiy mulkning taqdirini vafot etganidan so'ng, hal qiluvchi farmoyishni o'zi tirikligida (dastlabki paytda og'zaki, keyinchalik esa yozma asosda) odat normalariga va qonunlarda belgilangan tartibda rasmiylashtirganlar.

Vorislik munosabatlari dastlab XII jadval qonunlarida ko'rsatilib, bu qonunlarga asosan, vorislik munosabatlari 2 qismga bo'lingan:

- 1) qonun bo'yicha vorislik (successio legitima);
- 2)) vasiyat bo'yicha vorislik (successio testamentaria).

Rim quldorlik davlatidan oldin vujudga kelgan vorislik huquqini qabul qilish munosabatlari vasiyatnomasiz amalga oshirilgan bo'lsa, bu munosabatlar qonun bo'yicha



vorislik deb atalib, uning huquqiy rejimi qonun bo'yicha vorislik asosida hamda ko'proq XII jadval qonunlari bilan tartibga solingan

XII jadval qonunlariga asosan, meros qoldiruvchi shaxs vafot etishidan oldin vasiyatnoma qoldirmagan bo'lsa, uning birinchi meros oluvchisi agnatlar bo'lib, uning katta o'g'li hisoblangan. Barcha mulk meros massasi aka-ukalarga, opa-singillarga, o'limidan keyin tug'ilgan farzandiga, umuman agnatlar oilasiga o'tkazilgan

Rim huquqi tomonidan ishlab chiqilgan vorislik huquqiy munosabatlari barcha davlatlar, xalqlar, ayniqsa, feodalizm va burjua jamiyatlari tomonidan to'liq qabul qilindi, hatto hozirgi zamon qonunchiligi universal huquqni qabul qiluvchi, barcha qoldirilgan meros massasi bilan meros qoldirgan shaxslarning qarzlari, ya'ni majburiyatlarini ham to'liq qabul qilishni va bajarish ma'suliyatini olish orqali meros qoldiruvchining huquqlarini davom ettirayotganligini bildirgan.

Rim huquqni universal huquqni qabul qilish bilan birgalikda singulyar huquqni qabul qilish institutini ishlab chiqdi. Bunga asosan, meros qoldiruvchining yakka iltimoslarini, buyruqlarini bajarish uchun merosning ma'lum qismini qabul qilish tushunilgan. Bu huquqni qabul qilish barcha qoldirilgan meros summasi bilan bog'liq emasligini yoki uning qarz va boshqa majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga olinmasligini bildirgan.

Qadimgi Rim quldorlik davlatida meros – shaxs o'z mol-mulkini vafotidan keyin bir yoki bir necha shaxslarga bo'lib berish uchun farmoyish berishiga aytilgan.

Buning ma'nosi – merosxo'r (merosxo'rlar) biror-bir harakat, ruxsat yoki hujjat (vasiyatnoma) asosida meros qoldiruvchining butun mol-mulkiga bir nechta merosxo'r bo'lgan taqdirda ham, avvalo mol-mulkning hammasiga egalik qilishga tushunilgan. Demak, merosxo'rga barcha mulk o'tishi bilan, marhumning qarzlari va majburiyatlari ham o'tgan. Bu huquqni qabul qilish universal huquqni qabul qilish deb atalgan.



Merosni to'liq asosda qabul qilmaslik yoki merosni qabul qilishdan voz kechish – legatlar yoki fideokomisslar ham mavjud bo'lib, ularni singulyar asosda huquqni qabul qilish deb atalgan

Vasiyatnomaning shakli uzoq vaqt davomida asta-sekin soddalashtirilib kelingan, lekin shunda ham Yustinian kodeksida ko'rsatilganidek, baribir bu masalani hal qilish nihoyatda murakkab bo'lgan. Unga ko'ra, vasiyatnomani tuzish paytida 7 nafar guvohning qatnashishi talab etilgan, lekin dastlabki paytlarda yozma shakl majburiy hisoblanmagan.

Xususiyl asosda vasiyatnomalarni tuzish bilan bir qatorda oilaviyl asosda vasiyatnomalarni tuzishga ham ruxsat etilgan, ya'ni bunda davlat organlari qatnashgan. Vasiyatnoma qoldiruvchining roziligi bilan sudning protokoli yoki munitsipal magistratning protokoliga kiritish hamda vasiyatnomani imperator kanselariyasiga saqlashga topshirish orqali ham amalga oshirilgan.

Vasiyat qoldiruvchi tomonidan aniq “persona certa” tayinlanishi kerak bo'lgan. Ayniqsa, merosni qabul qiluvchi shaxsni meros qoldiruvchi o'zi yozma ravishda ko'rsatishi lozim bo'lgan. Har qanday holatlarda ham tayinlanayotgan vorislar, eng avvalo, voris yoki merosxo'r sifatida tayinlanish layoqatiga ega bo'lishi lozim edi.

Imperator Avgustning “Nikohsizlik va bolasizlikka qarshi kurash to'g'risida”gi qonuniga ko'ra 25-60 yoshdagi bo'ydoq erkaklar va 20-50 yoshdagi turmushga chiqmagan ayollar merosni faqat yaqin qarindoshlari orqali olishlari mumkin edi. Shunda ham agar ular meros ochilganidan keyin 100 kun ichida turmushga chiqqan yoki uylangan bo'lsalar, merosxo'r bo'lishlari mumkin bo'lgan.

Imperator Yustinian davriga kelib, 543-yilda qabul qilingan 118-son Novellasi hamda 548-yildagi 127-son Novellasi bilan qonun bo'yicha vorislik tizimini soddalashtirib, qon-qarindoshlik munosabatlariga, ya'ni kognatlar vorisligi tizimiga to'liq o'tdi. Imperator Yustinian tizimi bo'yicha meros oluvchilar navbati 4 ga bo'lingan:



- **Birinchi navbat** – vafot etgan shaxsga to’g’ridan to’g’ri bog’liq bo’lgan bolalar va o’lgan bolalarining bolalari, ya’ni marhumning nevaralari. Nevaralari otasiga taalluqli bo’lgan hissani olib, o’zaro bo’lib olishiga ruxsat etilgan
- **Ikkinchi navbat** – birinchi navbatdagi vorislar bo’lmagan taqdirda, ota va onasi, buva va buvisi, vafot etgan shaxsning aka-uka, opa-singillari va ularning bolalari (agar ularning ota-onalari meros ochilishidan oldin o’lib ketgan bo’lsalar) Yustinian qonunlari bo’yicha voris bo’ladilar, ular o’zlarining marhum ota-onalariga qonun bo’yicha tegishi lozim bo’lgan meros hissasidan bab-baravar meros olganlar
- **Uchinchi navbat** – birinchi va ikkinchi navbatdagi vorislar bo’lmagan taqdirda chaqiriladilar. Bular asosan bir ota ikki yoki bir necha onalardan yoki bir ona va bir nechta otalardan tug’ilgan farzandlar hamda o’gay yoki yuqorida ko’rsatilgan shaxslarning bolalariga, ular o’z ota-onalariga tegishli bo’lgan hissalaridan bab-baravar ulush olish huquqlariga ega bo’lganlar
- **To’rtinchi navbat** – yon shajara orqali bog’langan eng yaqinlaridan boshlanadi. Bu shaxslar voris bo’lishi uchun yuqorida ko’rsatilgan navbatdagi vorislar bo’lmasligi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’ZME birinchi jildi Toshkent 2000-yil
2. O’zbekiston yurdik ensiklopediyasi.
3. O’zbekiston tarixi Qamariddin Usmonov 2006-yil
4. O’zbekiston Respublikasining Vasilik va homiylik to’risidagi qonun